

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi**  
**2024-2025 o‘quv yili**  
**I-chorak**  
**choraklik summativ baholash**  
**test savollari.**  
**7-sinf**  
**2-variant**

1-20 matematika, 21-35 ona tili va adabiyoti, 36-45 biologiya  
 (B-bilish; Q-qo‘llash; M-mulohaza ga oid test savollari)

O‘quvchi (F.I.SH).....

1. (B 1,5 ball) Berilgan qavsli ifodalarda qavslarni oching va to‘g‘ri javoblarni mos keltiring.


I. $-(a - b + c)$	A. $-a + b + c$
II. $+(-a + b + c)$	B. $a - b + c$
III. $+(a - b + c)$	C. $-a - b + c$
	D. $-a + b - c$

A) I-D, II-B, III-A    B) I-D, II-A, III-B    C) I-A, II-B, III-C    D) I-A, II-C, III-B

2. (B 1,5 ball) 0,00023 sonini standart shaklda yozing.

A)  $23 \cdot 10^{-5}$     B)  $2,3 \cdot 10^{-3}$     C)  $23 \cdot 10^4$     D)  $2,3 \cdot 10^{-4}$

3. (B 1,5 ball) Berilgan rasmdan foydalanib,  $a$  to‘g‘ri chiziqqa tegishli, lekin  $b$  to‘g‘ri chiziqqa tegishli bo‘lmagan nuqtalarni toping.



A) B    B) A, D, C va E    C) O    D) O va B

4. (B 1,5 ball) Quyidagi jadvalda burchaklar va burchak turlari nomlari ketirilgan. Burchaklarni kattaligiga qarab ularning turlari mos keltirilgan. Quyidagi tasdiqlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.

№	Tasdiqlar	to'g'ri	noto'g'ri
1	180° - yoyiq burchak		
2	88° - o'tmas burchak		
3	39° - to'g'ri burchak		

- A) noto'g'ri, to'g'ri, to'g'ri; B) to'g'ri, noto'g'ri, noto'g'ri;  
 C) to'g'ri, noto'g'ri, to'g'ri; D) noto'g'ri, to'g'ri, noto'g'ri;

5. (Q 2 ball) Algebraik ifodaning berilgan sonlarda qiymatini toping.

$$2c - 3ab + 4bc; \quad a = -1; b = -3; c = -2$$

- A) -1 B) 19 C) 11 D) -9

6. (Q 2 ball) Yo'lovchi qishloqdan chiqib, shahar tomon jo'nadi. U  $x$  kilometr piyoda yurganidan keyin avtobusga o'tirdi va avtobusda  $t$  soatda shaharga yetib keldi. Agar avtobus 65 km/h tezlik bilan harakat qilgan bo'lsa, qishloq bilan shahar orasidagi  $S$  masofani toping.

- A)  $S = x + 65t$  B)  $S = (x + 65)t$  C)  $S = xt + 65$  D)  $S = 65t - x$

7. (Q 2 ball) Hisoblang:

$$\frac{8^{19} \cdot 3^{39}}{8^{17} \cdot 3^{42}}$$

- A)  $\frac{64}{27}$  B)  $\frac{64}{9}$  C)  $\frac{27}{64}$  D)  $\frac{9}{64}$

8. (Q 2 ball)  $16^{15+n}$  soni  $2^{55+4n}$  sonidan necha marta katta?

- A) 8 B) 16 C) 32 D) 4

9. (Q 2 ball) Birhadni standart shaklga keltiring

$$3abc^2 \cdot 2ab^2c \cdot a^2bc$$

- A)  $6a^4b^5c^4$  B)  $6a^4b^4c^4$  C)  $6a^5b^4c^4$  D)  $6a^4b^4c^5$

10. (Q 2 ball) Qavslarni oching va o'xshash hadlarni ixchamlang:

$$-2a - 5(4a - 2b) - 3(3b - a)$$

- A)  $6a + b$  B)  $-19a$  C)  $19a - b$  D)  $-19a + b$

11. (Q 2 ball) Qavslarni oching va o'xshash hadlarni ixchamlang:

$$-(6x^3 + 7x^2) - (-9x^3 + x^2) + (-10x^3 - 4x^2)$$

- A)  $-7x^3 + 12x^2$  B)  $7x^3 + 12x^2$  C)  $-7x^3 - 12x^2$  D)  $7x^3 - 12x^2$

12. (Q 2 ball) Ko'phadlarni ko'paytiring:

$$(3a + 4b)(9a^2 - 12ab + 16b^2)$$

- A)  $27a^3 + 64b^3$  B)  $27a^3 - 64b^3$  C)  $27a^3 - 48ab + 64b^3$  D)  $27a^3 + 24ab$

13. (Q 2 ball) Noma'lum ko'paytuvchini toping:

$$-35x^2 - 21x + 20x + 12 = (5x + 3) \cdot (?)$$

- A)  $(7 + 4x)$  B)  $(4 + 7x)$  C)  $(7x - 4)$  D)  $(4 - 7x)$

14. (Q 2 ball)  $AB$ ,  $BC$ ,  $CD$  va  $DE$  kesmalar o'zaro teng (rasmga qarang). Agar  $BD = a$  bo'lsa,  $AD$  kesma uzunligi nimaga teng bo'ladi?



- A)  $\frac{3a}{2}$  B)  $a$  C)  $\frac{a}{2}$  D)  $\frac{3a}{4}$

15. (Q 2 ball) Agar qo'shni burchaklarning biri ikkinchisidan o'n to'rt marta katta bo'lsa, bu burchaklar ayirmasini toping.

- A) 156° B) 12° C) 168° D) 114°

16. (Q 2 ball) Soat mili 48 minutda necha gradusga buriladi?

- A) 24° B) 48° C) 36° D) 64°

17. (Q 2 ball) Quyidagi tasdiqlar ichidan noto'g'risini toping.

- A)  $AB$  to'g'ri chiziqni  $BA$  to'g'ri chiziq deb ham nomlash mumkin
- B) Diametr uzunligi radius uzunligidan 2 marta katta
- C) O'tkir burchakka qo'shni burchak ham o'tkir bo'ladi
- D) Vertikal burchaklarning bissektrisalari to'g'ri chiziq tashkil qiladi

18. (Q 2 ball) Uzunligi 12 cm bo'lgan  $AB$  kesma berilgan.  $AB$  nurda shunday  $C$  nuqta joylashganki,  $AC + BC = 13$  cm tenglik o'rinli bo'ladi.  $C$  nuqtani joylashgan o'rnini toping.

- A)  $C$  nuqta  $AB$  nurda  $B$  nuqtadan keyin 1 cm uzoqlikda
- B)  $C$  nuqta  $AB$  nurda  $B$  nuqtadan keyin 0,5 cm uzoqlikda
- C)  $C$  nuqta  $A$  va  $B$  nuqtalar orasida
- D) tenglik o'rinli bo'ladigan qilib  $C$  nuqtani joylashtirib bo'lmaydi

19. (M 3 ball)  $16^{20} \cdot 25^{41}$  ko'paytma necha xonali son bo'ladi?

- A) 80 xonali
- B) 82 xonali
- C) 81 xonali
- D) 75 xonali

20. (M 3 ball) Soat 3 dan 46 minut o'tgan vaqt (3:46) da soatning soat va minut millari orasidagi kichik burchakni toping.

- A)  $178^\circ$
- B)  $143^\circ$
- C)  $163^\circ$
- D)  $147^\circ$

21. (B – 2) To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) voleybol, intellekt, audiomatn, videolavha,
- B) asqatmoq, muloqat, valebol, intellekt
- C) dahanaki, intellekt, telegrom, intirnet
- D) po'chtachi, videolavxa, namayon

22. (Q – 2,8) Munosabat shakllari ketma-ket qo'llangan so'zlarni aniqlang.

1) uchrashsam; 2) gaplashdik; 3) kelishdi; 4) borsang-chi; 5) boraylik.

- A) 3, 4, 5
- B) 1, 2, 4
- C) 2, 3, 5
- D) 1, 2, 3

23. (Q – 2,8) Ushbu gapdan fonetik hodisalarga uchragan so'zlarni aniqlang.

Yashashga chanqoq ko'zlari bilan menga tik boqib turardi.

- A) yashashga, chanqoq, turardi.
- B) menga, chanqoq, turardi
- C) yashashga, ko'zlari bilan
- D) menga, tik boqib turardi

24. (B – 2) Gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshining qaysi so'zga ishora qilib kelganini aniqlang.

Ushbu falokatli urush zahrini yana qachongacha tortamiz ekan?!

- A) urush
- B) falokatli
- C) zahrini
- D) ushbu

25. (Q – 2,8) Parchada qo'llangan olmoshlarning ma'noviy turlari tartib bilan keltirilgan qatorni aniqlang.

Meni men istagan o'z suhbatiga arjumand etmas,

Meni istar kishining suhbatin ko'nglim pisand etmas.

- A) kishilik, o'zlik
- B) kishilik, belgilash
- C) ko'rsatish, o'zlik, belgilash
- D) ko'rsatish, kishilik, o'zlik

26. (B – 2) Yasama sifatlar qatorini aniqlang.

- A) xavotirli, qo'lqop, kichkina
- B) matonatli, beayb, tarqoq
- C) tog'olcha, kunduzgi, qarsildoq
- D) novcha, kamtar, maqtanchoq

27. (Q – 2,8) Gap tarkibida uyushib kelgan bo'lakni aniqlang.

Men, buvim, Iliko va Illarion bilan sodir bo'lgan voqealar mana shu qishloqda bo'lgan edi.

- A) ikkinchi darajali bo'lak – aniqlovchilar uyushgan
- B) ikkinchi darajali bo'lak – to'ldiruvchilar uyushgan
- C) gapda kesimlar uyushib kelgan
- D) gapda egalar uyushib kelgan

**28. (Q – 2,8)** Ushbu parchaga mos sarlavha keltirilgan qatorni aniqlang.

Qishning izg'irinli tuni. Do'kondor do'kon derazasining tashqi panjaralarini tushirar ekan, to'satdan oynadan do'kon ichidagi kimsaga ko'zi tushdi. Do'konda hali odam borligini payqamagan ham ekan. U notanish kishining do'kon peshtaxtasida turgan bir necha bo'lak sariyog'ni chaqqonlik bilan shlyapasi ichiga yashirganini ko'rib qoldi.

– G'aroyib ish bo'ldi-ku, – dedi do'kondor oynadan tashqariga chiqishga shoshilgan o'g'rini kuzatarkan. Ayni paytda unga qanday jazo berish yo'llarini qidirardi...

A) Yaxshilikning javobi      B) Qishda maza!      C) Sirli tun      D) G'aroyib o'g'irlik

**29. (Q – 2,8)** “Hovlidagi daraxt” asaridan keltirilgan ushbu parchadan keyin sodir bo'lgan voqealar aks ettirilgan qatorni aniqlang.

Muhojir bir kuni hovlimizga qaychi ko'tarib kirib keldi-da, otamdan: “Ana shu daraxtingizdan payvandlik bersangiz?” deb so'radi.

A) Ota Muhojirga daraxtning tomiri yer qa'riga tik o'sishi haqida aytib beradi.

B) Bolaning bobosi hassasini yerga suqib, to tahorat olib kelguncha hassa nish otib ko'karganligi haqida hikoya qilinadi.

C) Bola daraxtning boshqa daraxtlarga o'xshab tomiridan ko'paymaslik sababini bobosidan so'raydi.

D) Bolaning otasi daraxtga bolta yo qaychi urishga yo'l qo'ymagani sababli Muhojirga ham rad javobini beradi.

**30. (B – 2)** “Oqbo'yin qissasiga tegishli parchalarni aniqlang.

1. Karim podachi – sinchi, itni farqlay biladi. Umri fermada o'tgan bu odam itni ishqibozlik uchun emas, zarurat yuzasidan asraydi.

2. Chor atrofi baland devor bilan o'ralgan tor joyda uning aqli yetmaydigan ajoyibotlar to'lib-toshib yotibdi. Eng qizig'i devor boshida o'qtin-o'qtin ko'rinish beradigan babaq xo'roz...

3. Nihoyat bu kech uning sabr kosasi to'lib toshdi. Ortiq bardosh berishga o'zida kuch topmadi. Supada uxlab yotgan bolani ko'zi qiyib-qiyamay, devor oshib ko'chaga chiqdi.

4. Bu yirtqichning yuragi birvarakayiga uchta musibatni ko'tara olarmikin? U ham kuch-quvvatidan, ham erkidan, ham juftidan ayrildi...

A) 2, 3, 4      B) 1, 2, 3, 4      C) 1, 2, 3      D) Faqat 3

**31. (Q – 2,8)** Quyidagi parcha haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

Rasulning **qutqusi** bilan u Mallani endi tagiga bosgan edi, kutilmaganda o'ng oyog'i akasining jag'lari orasiga tushib qoldi. Jag' emas, misoli qopqon, qani qo'yvorsa. Angillab yubordi.

A) Parcha Normurod Norqobilovning “Oqbo'yin” asaridan olingan bo'lib, asarda it va inson munosabatlari o'z aksini topgan. Ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nosi: “qo'rquv” yoki “vahima”

B) Parcha Ernest Seton-Tomsonning “Lobo” asaridan olingan bo'lib, ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nosi: “qo'rqo'v”.

C) Parcha Nurali Qobulning “Tubsiz osmon” asaridan olingan bo'lib itning insonga vafosi, sadoqati haqida. Ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nosi: “yuragi uvushmoq”.

D) Parcha Normurod Norqobilovning “Oqto'sh” asaridan olingan bo'lib, matnda ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nosi: “vahima qilmoq”.

**32. (Q – 2,8)** Ushbu parcha hamda undan ajratib ko'rsatilgan jumla haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

Ne ko'z bilan ko'rayki, qarshimda butun Kurrumponi **zir titratgan** Lobo turardi. U endi qochib ketolmas, qopqonga boplab tushgan edi!

A) Parchada qanchadan qancha podachi va jonivorlar yuragiga vahima solib, ularni

*qo'rquvdan titratgan* qari arloni bo'rining ayanchli holati aks ettirilgan.

B) Parchada Loboning bu holga tushishiga sababchi bo'lgan ovchining o'z kuchiga ishonib gerdayishi aks ettirilgan. Ajratilgan jumlaning ma'nosi: *qo'rqitgan*.

C) Hech kim tuta olmagan bo'rini o'z hiyla-nayranglari orqali qopqonga tushira olgan podachining holati aks ettirilgan. Ajratilgan jumlaning ma'nosi: *yig'latgan*.

D) Bo'rining chiroyli terisiga zarar yetkazmay, qopqonga tushira olgan ovchining mo'maygina daromaddan ko'ngli chog' holati aks ettirilgan. Ajratilgan jumlaning ma'nosi: *vahimaga tushirgan*.

**33. (Q – 2,8)** Ernest Seton-Tomsonning “Lobo” asaridan keltirilgan badiiy parchalarni aniqlang.

1. U ham kuch-quvvatidan, ham erkidan, ham juftidan ayrildi. Ertalab qaragam, u hamon dam olayotganday osoyishtagina yotibdi. Ammo... jonsiz yotibdi...

2. Umrini yelga sovirib bo'ldi, oxirgi damlarida juda qattiq pushaymon yesa-da, endi hech narsani o'rniga qo'yib bo'lmaydi. Kech, juda kech...

3. Yuragi qalaydan yasalgan bo'lsa ham u juda rahmdil edi, hatto nochorlarning ahvolini ko'rib ko'z yosh to'kardi.

4. Qanchadan qancha qimmatbaho oyoq kiyimlar ichida yirtiq paypoqlar yashirin.

A) 1, 3, 4      B) 2, 3      C) faqat 1      D) 1, 4

**34. (Q – 2,8)** “Chol va dengiz” qissasidan keltirilgan ushbu suhbat haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

– Meni qidirishdimi?

– Bo'lmasa-chi. Qirg'oq soqchilari ham, samolyotlar ham qidirishdi...

A) Parchada dengizda yo'qolib qolgan qariyaning o'z qadr-qimmatini o'lchash maqsadida bergan savoliga, bolaning oshirib bergan javobi aks ettirilgan.

B) Parchada o'zini kerakli his qilishni xohlayotgan yolg'iz qariyaning sarosimali holati, Monolinning esa uning ko'nglini ko'tarish uchun bergan javobi aks ettirilgan.

C) Baliqchilarning hurmatiga sazovor qariyaning o'z qadr-qimmatini o'lchash maqsadida bergan savoliga, bolaning oshirib bergan javobi aks ettirilgan.

D) Vaqt o'tkazish uchun dengizga chiqib, yo'qolib qolgan qariyaning o'zi haqida kimlar qayg'urishini bilish maqsadida bergan savoliga bolaning oshirib bergan javobi aks ettirilgan.

**35. (M – 4)** Asqad Muxtor qalamiga mansub ushbu lirik parcha xulosasi aks etgan qatorni aniqlang.

O, ona tabiat!

Sen bilan yak sonman,

Sen mening erkimsan, mening qafasim.

Jonim shirinligi, tirikligim sendan,

Sof havodan olgan nafasim.

Tug'ishganlik hissi yo'l qo'ymaydimi,

Odatmas quyoshga aytmoq tashakkur.

Har tong qarshisida tiz cho'ksam arzirdi,

Yorug' dunyom mening, ko'zimdagi nur.

A) Ushbu misralar orqali muallif hayotning o'tkinchiligini, hatto quyosh ham zavol topishini, shunday ekan insoniyat atrofida qilargani asrab-avaylashi, ularga quyosh kabi mehr ulashishi kerakligini aytmoqda.

B) Muallif borliqni, undagi ne'matlarni yakson qilayotgan insoniyatni ne'matlarni asrashga undash bilan birga, hatto quyoshning ham bir kun kelib so'nishi haqida o'zining dardchil satrlarida eslatib o'tyapti.

C) Muallif ushbu satrlarida dunyoning o'tkinchiligini, hatto kun kelib nur sochib turgan quyoshning ham so'nishi muqarrar ekanligini eslatish bilan birga, bizdan talab etiladigani esa borliqqa quyosh kabi mehr ulashish ekanligini ta'kidlamogda.

D) Muallif ushbu mushohadaga undaydigan satrlarida borliq bilan insonning uyg'unligini

ta'kidlamoqda. Inson yaqinlariga nisbatan har dam minnatdorlik hissini tuyib tursa-da, doimo ham ularga ko'nglini ochavermasligini aytib, aslida, Quyoshdan ham har tong minnatdor bo'lish kerakligini aytmoqda.


**36. (B 2,5 ball)** Anvar yoz faslida oshxona stolida qovun tarvuzlarda chumolilar paydo bo'lib qolishini aniqladi. U tarvuz bo'lagini yotoqxon derazasiga joyladi va ma'lum vaqtdan keyin shirinliklarga o'ch chumolilar bu yerda ham borligini aniqladi. Anvarning ko'nikmalari qaysi tadqiqot metodiga mos keladi.

A. kuzatish                      B. taqqoslash                      C. tajriba                      D. Ilmiy dalil

**37. (B 2,5 ball)** Shakli o'zgargan yer osti novdalariga ega o'simliklarni aniqlang.


A. kartoshka, gulsafsar    B. qamish, sabzi    C. g'umay, kartoshkagul    D. shirinmiya, rediska

**38. (B 2,5 ball)** Yorug'lik mikroskopining 7- raqam bilan ko'rsatilgan qismi nomi berilgan javob variantini aniqlang



A. shtativ                      B. tubus                      C. okulyar                      D. obyektiv

**39. (B 4,5 ball)** Sxemada keltirilgan raqamlar ketma ketligida Avstraliya yexidnasining sistematik birliklari to'g'ri berilgan javob variantini aniqlang.



Avstraliya  
yexidnasi

A. umurtqalilar → xordalilar → sut emizuvchilar → xaltali tuxum qo'yuvchilar → kloakalilar

B. xordalilar → umurtqalilar → sut emizuvchilar → kloakalilar → tuxum qo'yuvchilar

C. xordalilar → umurtqalilar → sut emizuvchilar → tuxum qo'yuvchilar → xaltalilar

D. xordalilar → umurtqalilar → sut emizuvchilar → tuxum qo'yuvchilar → kloakalilar

**40. (B 4,5 ball)** Jadval ustunlarida berilgan tirik organizmlarga xos xususiyatlarni o'rganing. O'rgangan bilimlaringizdan foydalanib, jadval qatorlariga mos keluvchi organizmlar nomi to'g'ri muvofiqlashtirilgan javob variantini aniqlang.                      (– yo'q, + ha)

Organizm	xromotofor	Bir hujayrali	Ko'p hujayrali	mitseliy
1	+	+	-	-
2	-	+	-	+
3	-	-	+	+


A. 1 – yashil evglena; 2 – achitqi zamburug'i; 3 – muxomor;

B. 1 – xlorella; 2 – qo'ziqorin; 3 – oqqayin zamburug'i;

C. 1 – ulva; 2 – leyshmaniya; 3 – oqqayin zamburug'i;

D. 1 – nemalion; 2 – achitqi zamburug'i; 3 – qo'ziqorin;

41. (B 4,5 ball) Sxemada noma'lum o'simlikka berilgan xususiyatlarni o'rganing. Quyida berilgan o'simlik rasmlaridan sxemaga mos keluvchi o'simlikni aniqlang.




A. 2- o'simlik

B. 4- o'simlik

C. 1- o'simlik

D. 3- o'simlik

42. (B 4,5 ball) Diagrammada berilgan o'simliklar nomini o'qing. Raqamlar o'rniga umumiy xususiyatlar mos keluvchi to'g'ri ma'lumotlar muvofiqlashtirilgan javob variantini aniqlang.



- a) bir yillik o'simlik
- b) soyabon to'pgulga ega
- d) shakli o'zgargan novda
- e) ildizi o'q ildiz
- f) gulli o'simlik

A. 1 – f; 2 – a; 3 – d

B. 1 – d; 2 – a; 3 – b

C. 1 – b; 2 – d; 3 – f

D. 1 – d; 2 – a; 3 – f

**43. (B 4,5 ball)** O'rgangan bilimlaringiz asosida eukariot va prokariot organizmlar hujayralari uchun tegishli umumiy xususiyatlar berilgan javob variantini variantini aniqlang.

- a) hujayra ichiga moddalar pinositoz usulda kiradi  
 b) lizosoma kirgan oziqlarni parchalaydi  
 d) irsiy axborotlar DNK da joylashadi  
 e) mitoxondriya energiya bilan ta'minlaydi.  
 f) plazmatik membraha moddalar transportini ta'minlaydi


A. b, d                      B. d, f                      C. b, f                      D. a, e

**44. (B 4,5 ball)** Jadval qatorlarida va ustunlarida berilgan ma'lumotlarni tahlil qiling. Jadvalning qaysi qatorlarida o'simlik va ularning to'qimalariga xos xususiyatlar to'g'ri berilganligini aniqlang.

№	O'simlik to'qimalariga xos xususiyatlar	qarag'ay	qayrag'och
1	Suv o'tkazuvchi nay hujayralari orqali tashiladi	ha	ha
2	Organik moddalar elaksim on nay hujayralari orqali tashiladi	yo'q	ha
3	Suv o'tkazuvchi traxeidlar orqali tashiladi	yo'q	ha
4	Kambiy hujayralari o'simlik organlarining eniga o'sishini ta'minlaydi	ha	ha

A. 1, 4                      B. 2, 4                      C. 3, 4                      D. 2, 3

**45. (M 5,5 ball)** Shahar atmosfera havosida chiqindi gazlar ko'pligi tufayli qurumlar daraxt po'stlog'ida to'planadi. Yosh tadqiqotchi qushlar tutadigan hasharotlarni o'rganish jarayonida qushlar tutadigan 90 foiz ozuqa oq rangda bo'lishini aniqladi. Mulohazalaringizga va berilgan rasmga tushunganlaringizga tayangan holda aytingchi, shaharda tarqalgan ko'rshalaklar yeydigan hasharotlar qancha miqdori oq rangli bo'ladi.



- A. Ko'rshalaklar ham asosan qushlarga o'xshab oq rangli hasharotlarni o'lja qiladi.  
 B. Ko'rshalaklar tunda ov qilgani uchun oq rangli hasharotlarni o'lja qilishi oson bo'ladi.  
 C. Ko'rshalaklar uchun o'lja rangi ahamiyatga ega emas, teng miqdorda yeyishi mumkin  
 D. Ko'rshalaklar asosan to'q rangli hasharotlar va qurtlarni tutib yeydi